

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
DEKABR
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
15-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-15**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-15**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

1. Nagmatova Navbahor Abdurashitovna TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI.....	7
2. Madaminova Munira Baxromovna, Bobojanova Fazilat G'ayrat qizi, Djumaniyozova Rushana Bahtiyarovna MUSIQA SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	9
3. To'rayev Shermat Masharipovich, Boxtiyorov Sapaboy Boxromovich INSONNING QO'SHIQ KUYLASH FAOLIYATI.....	11



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

ТА’ЛИМДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ О’РНИ

Nagmatova Navbahor Abdurashitovna,
Navoiy viloyat Xatirchi tumani
33-maktab musiqa madaniyati fani o’qituvchisi

Bugungi kun o’qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklangan bo’lib, ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo’lib, ta’limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o’quvchilarda o’z faniga qiziqish uyg’otishlari, hurmat-ehtirom tuyg’ularini shakllantirib borishlari talab etiladi.

Qadimdan inson savodini chiqarishda avlodlarimiz qaysi bir jamiyatda yashashidan qat’i nazar vaqtlar o’tishi bilan ta’lim jarayonini sifat jihatdan o’zgartirishga va rivojlantirishga harakat qilganligining guvohi bo’lib kelmoqdamiz. Mamlakatimizda yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimiga ham jadallik bilan kirib borayotganligi, ta’lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko’tarish uchun xizmat qilayotganligining guvohi bo’lmoqdamiz. Ta’limda axborot texnologiyalari barkamollik asosi ekan, ta’lim tizimidagi xodimlarning zimmasiga ta’lim mazmunini sifat jihatdan rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifalar turibdi. Bu esa, zamon shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, o’qituvchilar bilan birga ta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga kechiktirilmasdan bajariladigan vazifalarni yuklaydi. O’quvchilarga beriladigan bilim esa fundamental asosga ega bo’lib, har qanday axborotlarni tahlil qila oladigan, mantiqiy to’g’ri xulosa chiqaradigan kuchga ega bo’lishi lozim. O’quvchilar ana shunday intellektual bilim olishda zamonaviy texnik vositalardan oqilona foydalanish, ta’lim tizimida sifat o’zgarishiga olib kelishi shubhasiz. Ayniqsa, ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, ya’ni dars mashg’ulotlari jarayonida texnologiya, axborot, kompyuter, multimediya, internet va shunga o’xshash axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish o’zining samarasini bermoqda. Shu o’rinda yuqoridagi texnik vositalar o’quvchining o’zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunish darajasini, xotirada saqlash va uni qo’llashni yuksaltirish imkoniyatlarini ham bermoqda.

Elektron taqdimot – darsda slaydlardan ko’rgazmali material sifatida foydalanish o’qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O’quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o’tilayotgan materialning berilishi mavzuni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishini yengillashtiradi va ko’rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o’quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan shaxsga yo’naltirilgan ta’limni rivojlantirish, o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish kerak.

Yuqoridagi fikrlarimizni ona tili va adabiyot fanida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qanday ijobiy natija va samara berishi misolida dalillaymiz. Darslarda axborot kommunikatsiyalaridan foydalanish quyidagi natijalarni beradi:

- o’qituvchilarning fikri yoki darsning mohiyati bir zumda monitorda paydo bo’ladi;
- bir vaqtning o’zida hamma jarayonni ko’rish, o’qish va eshitish mumkin;
- o’z-o’zini o’qitish, baho berish, kuzatish, kichik tadqiqot o’tkazish mumkin;
- eshitib, ko’rib, his qilib olingan bilimning uzoq muddatli va samarali bo’lishini ta’minlash mumkin;
- o’qituvchining mustaqil ishlashi, yangiliklar yaratishiga, kasbiy mahoratini rivojlantirishga va vaqtni tejashga erishishi;
- ta’lim jarayonida berilayotgan ma’lumotlarni chuqurroq va mukammalroq o’zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- ta’lim jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga



erishish va shuning hisobiga ko‘proq bilimga ega bo‘lish;

- olingan bilimlar samaradorligini yuqori darajadali, yoshlar xotirasida uzoq muddat saqlanishi va uni amaliyotga qo‘llash imkoniyatining mavjudligi va hokazo.

Zamonaviy ta‘lim tizimining xususiyatlaridan biri bilimlarni saralash, jamg‘arish, tizimlashtirish va uzatish jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

Insonning axborotni qayta ishlash bo‘yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish - axborotlashtirish sanoatini jadal rivojlantirishni talab etuvchi eng muhim vazifa hisoblanadi. Ta‘limda axborot texnologiyalaridan foydalanish axborotlar sifati, uning aniqligi, obyektivligi, tezkorligini va buning natijasi sifatida esa boshqaruv qarorlarini o‘z vaqtida qabul qilish imkoniyati oshishini ta‘minlaydi. Demak, ta‘lim olayotgan talaba yoki o‘quvchi uchun bir qator imkoniyatlar yaratiladi.

Ta‘lim sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish, asosan, quyidagi yangi imkoniyatlarni beradi: zaruriy o‘quv va ilmiy axborotni izlash vaqtining qisqarishi va ulardan foydalanish imkoniyati; yangi o‘quv va uslubiy adabiyotlarni ishlab chiqishga o‘qituvchilar vaqtining qisqarishi hisobiga yangilash jarayonining jadallashuvi; ta‘lim oluvchilarda individual mustaqil ishlash uchun qo‘shimcha vaqt paydo bo‘lishi; ta‘lim jarayonining sifatini oshirish vazifalarini hal qilish imkoniyatini beradi. Chunonchi, yangi axborot texnologiyalari ta‘limning har bir bosqichida uning sifatini kuzatib borish, ta‘limning sifatiga innovatsion texnologiyalar ta‘sirini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Ta‘limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish eng dolzarb talablardan biri ekan bugungi kun o‘qituvchisidan, avvalo, kompyuter savodxonligi, matbuot va internet xabarlaridan voqif bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi zamon bilan hamnafas bo‘lishi talab etiladi. Aks holda bugungi kunning qiziquvchan va aqlli o‘quvchisi kompyuter savodxonligi bo‘yicha o‘qituvchi-pedagoglardan ilgarilab ketishi mumkin.



MUSIQA SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Madaminova Munira Baxromovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
14-son maktabning musiqa fani o'qituvchisi

Bobojanova Fazilat G'ayrat qizi

Xorazm viloyati Urganch shahar
19-son IDUM ning musiqa fani o'qituvchisi

Djumaniyozova Rushana Bahtiyarovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
19-son IDUM ning musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa san'atining shakllanishi, o'zbek musiqa san'atining tarixi, musiqaning inson hayotida tutgan muhim o'rni va bugungi kundagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, ashula, san'at, folklor, ijro, tarix, urf-odat, jahon musiqasi, o'zbek xalq musiqasi, meros.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Taraqqiyot davomida xalq bastakorlik yo'llari, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq mumtoz musiqasi, shuningdek, folklor – havaskorlik musiqiy merosi kabi shakli va uslubi bilan bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ana shu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma'naviyatimiz ham madaniyatimizning bir jabhasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Keyingi besh-olti yil ichida milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayotgan qadrlar an'analarimizga bo'lgan e'tibor va ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi. Davlat miqyosida urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan hurmat va e'tibor ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boylklarni, xususan, musiqiy madaniyatni asrab avaylash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida ko'pgina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Azaldan ma'lumki, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini hisoblanib kelingan an'anaviy qo'shiqlarimiz, ashularimiz, musiqiy madaniyatimiz, maqom ijrolari har doim xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof qilib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham, to'y va marosimlarda qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi kunimizda ham o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning hammasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga qarab qolmasdan, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir.

Bugun mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Insonlar qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Yangi O'zbekistonda yangicha qarashlar, yangicha islohotlar va yangicha musiqa madaniyati kirib keldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, ma'naviy jabhalarning barcha yo'nalishlari o'zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo'ladi. Qolaversa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o'ziga xos o'rnini baholash, uning ta'sirchanlik kuchini Mustaqillik mafkurasi tomon yo'naltirish, uning bosh mezonini ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotimizda bugungi kunda shu tamoyilga ko'ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning



fikri-zikri ana shu tamoyillar yo`liga yo`naltirilgan desak, xato qilmagan bo`lamiz.

Musiqiy madaniyat o`zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o`zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o`zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham ketgani yo`q. U xalq ijodining yuksak namunalari, kuy tuzilishi, folklor ijrochiligi, mazmunan rivojlangan cholg`u va ashula asarlari, murakkab ijrochilik turkum atalmish maqom musiqasi hamda dostonlar ijrochiligini o`z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o`zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo`shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o`ringa ega.

XIX asr oxirlariga kelib o`zbek musiqiy madaniyatida o`zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o`lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog`liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o`rganmoq shartdir. Chunki ba`zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta`sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o`ziga xos rivojlanish davri bo`lganligini ham e`tirof etish kerak. Chunki o`lkamizda milliy musiqa san`atimizni ilmiy ravishda o`rganish, nota yozuvining kirib kelishi, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta`sir etdi. Bu borada V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov, Ye.Ye.Romanovskaya singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o`tish zarur bo`ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodikov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg`alari ulardan saboq oldilar.

Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo`shdi. Natijada, o`zbek xalq musiqalari, qo`shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko`rdi.

An`anaviy musiqa va qo`shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, odamiylikka, mehr-oqibatga, chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo`qotmagan holda Yangi O`zbekiston farzandlarining musiqiy ongini shakllantirish yo`lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo`lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktablarning musiqa fani darsliklari.
2. cyberleninka.ru
3. www.fayllar.org
4. Wikipedia.ru



INSONNING QO‘SHIQ KUYLASH FAOLIYATI

To‘rayev Shermat Masharipovich

Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi 1-son maktab

Musiqa fani o‘qituvchisi

Boxtiyorov Sapaboy Boxromovich

Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi 39-son maktab

Musiqa fani o‘qituvchisi

Telefon:+998884560181

turayevshermat12@gmail.com

Annotatsiya: Qo‘shiq kuylash bugungi kunda inson o‘qish va ish faoliyatini samarali bo‘lishi bilan birga inson ruhiy holatining ham yaxshi bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi albatta. Demak qo‘shiq kuylash inson tarbiyasi, ma‘naviyati uchun ham muhim deb hisoblaymiz.

Kalit so‘zlar: Kuylash, Kuylashdagi holat (turib, o‘tirib kuylash), Nafas hosil qilish, Tovush hosil qilish, Soz, Talaffuz, Ansambl, Cholg‘u, Tarbiya, Ruhiyat.

Bolalar qo‘shiq kuylashni sevadilar. Kuylash bolalar ijrochiligi faoliyati ichida yetakchi faoliyat turi bo‘lib, u o‘quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Yaxshi qo‘shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg‘u kuylaridan farqli o‘laroq qo‘shiq kuylash kuchli emotsional ta‘sir kuchiga ega. Chunki qo‘shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo‘ladi. Qo‘shiq inson aqliy kamolotini o‘shirishga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-alam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Qo‘shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o‘z kechinma va his-tuyg‘ularini faolroq ifodalaydilar. Qo‘shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg‘uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshiroq idrok etadilar. Jamoa bo‘lib kuylash faoliyati o‘quvchilarni musiqiy o‘quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchi o‘z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo‘rnovozlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o‘zaro do‘stlik hislari tarbiyalanadi. Qo‘shiq kuylash bola ruhiyatiga ta‘sir qilish barobarida, uning jismoniy o‘shirish va rivojlanishida ham katta ta‘sir ko‘rsatuvchi omildir. Jamoa bo‘lib kuylash mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning diqqat-e‘tibori, ongliligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o‘rgangan qo‘shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo‘ladi. Qo‘shiqni so‘z ma‘nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o‘rganadilar. Qo‘shiq kuylash bolalarning nutqini ham rivojlanishiga zamin yaratadi. Qo‘shiq so‘zlari cho‘zib ijro etilganligi tufayli bolalar yangi so‘zlarni bo‘g‘inlab, xatosiz o‘rganadilar. Musiqiy rahbar va tarbiyachilar so‘zlarning to‘g‘ri ijro etilishini tekshirib boradilar. Qo‘shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o‘rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o‘rtoqlarini eshitadilar va ularni bir xil sur‘atda kuylashga chaqiradilar. Qo‘shiq kuylash – musiqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo‘shiq kuylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo‘shiq matni esa mazmunan qo‘shiq kuyini anglashga yordam beradi. Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar eshitish qanday xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolalarning nutqini rivojlantiradi. Musiqa o‘qituvchisi bolalarni qo‘shiq kuylash jarayonida so‘zini kuyga mos qilib kuylash ularni nazorat qilib turadi. Bola ovozni o‘ziga xos xususiyatlari bog‘cha bolalarining ovozi nozik, yumshoq mayin bo‘ladi. Bola tomog‘i undagi bo‘g‘in bilan katta kichkina bo‘ladi. Shuning uchun ovozi yumshoq va tovush rezanatori orqali kuchaytirib beriladi. Rezonator ikkiga bo‘linadi: 1. yuqori bosh rezonator. 2. pastki ko‘krak rezanatori. Ko‘krak rezanatori ovozni kuchaytirib beradi. Bosh rezonator esa ovozni jarangli qilib beradi. Kuylash – bu murakkab jarayon bo‘lib, tovush hosil qiladi, ya‘ni kuylash davrida eshitish va kuylash bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bolalar kattalarning nutqi va ohangiga taqlid qiladilar, ovozlari qushlarning, uy hayvonlarining tovushlarini ifodalaydilar. O‘quvchilarda kuylash malakalarini samarali shakllantirishda eng avvalo inson ovoz apparati tuzilishini bilib olishimiz kerak. Og‘iz, burun bo‘shlig‘i, halqum, traxeya, bronxlar va o‘pkalar ovoz hosil qiluvchi a‘zolar hisoblanadi. Asosiy ovoz apparati esa hiqildoqda joylashgan. Bolalarni kuylash ijodini rivojlantirish bo‘yicha



ish asta-sekin olib boriladi. Shuni inobatga olgan holda maktab ta`lim-tarbiya dasturida har bir sinf diapazoniga mos asarlar berilgan. Shuni aytib o`tish kerakki, yosh bolalarda hali ovoz mushaklari rivojlanmagan bo`ladi. 7 yoshdan 13 yoshgacha bo`lgan vaqt ovoz mushaklarining shakllanish davri hisoblanadi. Unga qadar ovoz mushaklari vazifasini paylar bajaradi. 11-13 yoshga kelib bolalarda hiqildoq mushaklari to`liq shakllanadi va 20 yoshga qadar rivojlanib boradi. Shundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, 11-13 yoshda ovoz hosil qilish kattalarnikidan farq qiladi. Buni qo`shiq o`rgatish jarayonida albatta inobatga olishimiz kerak. Bolalar ovozini to`g`ri shakllantirish va rivojlantirish uchun o`qituvchi ovoz apparati o`zgarish xususiyatlari bilan birga, bolalarning kuylash imkoniyatlarini yaxshi bilish kerak. Chunki bolarning yosh diapazoniga amal qilishlik ovozning to`g`ri tarbiyalashning, kuylash faoliyatini samarali amalga oshirishda muhim shartlaridan biridir. 6-7 yoshli bolalarda kuylash imkoniyati u qadar katta emas. Yuqorida aytib o`tilgandek, bu ularning ovoz apparatlari to`liq shakllanmaganligi bilan bog`liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Dildora Soipova – “Musiq o‘qitish nazariyasi va metodikasi”
2. V.Vahromeyev - “Musiqning elementar nazariyasi”
3. Ibrohimov Oqiljon- “Maqom asoslari”.
4. Mahmudjon Tojiboyev –“Maqom alifbosi”

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 15-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000